

SUN'YI INTELLEKT DAVRIDA O'QITUVCHINING O'RNI**Shuhratova Gulira'no To'liqjon qizi****Navoiy viloyati Xatirchi tumani****51-maktabning 11-A sinf o'quvchisi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21847562>

XXI asr texnologiyalar asri sifatida inson hayotining deyarli barcha sohalariga katta o'zgarishlar olib kirmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bugungi o'quvchi kerakli ma'lumotni internet orqali bir necha soniya ichida topishi mumkin. Bu esa o'qituvchining an'anaviy vazifalariga yangicha qarashni talab etadi.

Avvallari o'qituvchi o'quvchi uchun asosiy bilim manbalaridan biri bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ma'lumot manbalari juda ko'paygan. Shunday ekan, zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ma'lumot yetkazish emas, balki o'quvchini undan to'g'ri va samarali foydalanishga o'rgatishdir.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida o'qituvchiga turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Undan dars uchun g'oyalar ishlab chiqish, topshiriqlar tayyorlash, mavzuni tushuntirishning turli usullarini izlash va o'quvchilarning qiziqishlariga mos materiallar yaratishda foydalanish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda bilimli va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana oladigan yoshlar sonining ortishiga xizmat qiladi.

Biroq texnologiyaning mavjudligi o'qituvchining ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, zamonaviy texnologiyalar o'qituvchidan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Chunki sun'iy intellekt ma'lumot bera olishi mumkin, ammo o'quvchining ruhiy holatini to'liq anglash, unga dalda berish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchi va sun'iy intellektni raqib sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida ko'rish maqsadga muvofiq. Texnologiya vaqtni tejashi va ayrim vazifalarni yengillashtirishi mumkin. O'qituvchi esa o'quvchiga ushbu imkoniyatlardan mas'uliyat bilan va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi lozim.

Yana bir muhim jihat — o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatidir. Agar o'quvchi har bir savolga tayyor javobni sun'iy intellektidan izlayversa, uning izlanish va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchini tayyor javobni olishga emas, avvalo savol berishga, mustaqil fikrlashga va xulosa chiqarishga undashi kerak.

Zamonaviy ta'limning maqsadi ham faqat ko'p ma'lumot biladigan o'quvchini emas, balki o'z fikriga ega, axborotni tahlil qila oladigan, mas'uliyatli va ijodkor shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak.

Bugungi o'qituvchini oddiy bilim beruvchi bilan cheklab bo'lmaydi. U — yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi, motivator va o'quvchining rivojlanishiga yordam beruvchi shaxsdir.

O'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni yaxshi bilishi bilan birga, o'z kasbiy mahoratini ham muntazam rivojlantirib borishi zarur. Chunki texnologiyalar o'zgaradi, yangi vositalar paydo bo'ladi, ammo o'qituvchining insoniy fazilatlar — mehr, sabr, mas'uliyat va o'quvchiga ishonch bildirish kabi qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Albatta, ta'lim jarayonidagi mas'uliyat faqat o'qituvchi zimmasida emas. Bu jarayonda o'quvchining ham mas'uliyati katta. O'qituvchi o'z metodikasini takomillashtirib, qo'lidan

kelganicha o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatsa-yu, o'quvchi berilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga hamda ularni amalda qo'llashga harakat qilmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin.

Shu sababli o'quvchi ham o'z ustida muntazam ishlashi, o'qituvchisi bergan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishi, mustaqil izlanishi hamda zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishi lozim. Ta'lim — faqat o'qituvchining mehnati bilan emas, balki o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi orqali yuqori natijaga erishadigan jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ta'lim uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Undan oqilona foydalanish o'qituvchining ishini yengillashtirishi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli hamda samarali tashkil etishga yordam berishi mumkin.

Ammo hech qanday texnologiya o'qituvchining shaxsiy namunasini, mehrini va tarbiyaviy ta'sirini to'liq almashtira olmaydi. Shuning uchun kelajak o'qituvchisi texnologiyadan qo'rqadigan emas, undan to'g'ri foydalanishni biladigan, o'quvchiga esa undan ham muhimroq bo'lgan narsa — mustaqil fikrlashni o'rgatadigan pedagog bo'lishi kerak.

Demak, zamonaviy o'qituvchi endi faqat “bilim beruvchi” emas, balki “to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi” bo'lishi lozim. Shu bilan birga, o'quvchi ham ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'z zimmasidagi mas'uliyatni his qilishi kerak.

O'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda mustaqil fikrlashga asoslangan ta'lim kelajak uchun bilimli, mas'uliyatli va ijodkor yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahimov, S. (2021). "Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi roli." O'zbekiston pedagogika jurnali, 10(2), 112-115.
2. Rasulov, D. (2022). "Sun'iy intellekt texnologiyalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi." Yosh ilm-fan jurnali, 8(1), 74-80.
3. Ibragimov, B. (2020). "Ta'limda sun'iy intellekt va uning o'quvchilarga ta'siri." O'zbekistonda ta'lim va ijtimoiy innovatsiyalar jurnali, 4(2), 44-49.